



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti




No9(1)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 88 sahifa,
2-sentyabr, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woosyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

O'smirlarda hissiy bezovtalikning psixologik determinantlari sifatida o'z-o'zini baholash va o'ziga munosabat xususiyatlari.....	10
<i>Ibraymova Altinay Esemuratovna</i>	
Bo'lajak pedagoglar shaxsiyatida ksenofobiya xavfi: kasbiy deformatsiya omillari va uning pedagogik faoliyatga ta'siri	16
<i>Abdiraximova Dildora Begimkulovna</i>	
Biologiya ta'limida sun'iy intellektdan foydalanish: didaktik imkoniyatlar, muammolar va metodik yechimlar	20
<i>Raxmatov Uchkun Ergashevich</i>	
Talabalarda mediasavodxonlik va tanqidiy fikrlash o'rtasidagi psixologik bog'liqlik.....	28
<i>Adizova Muxabbat Muxitdinovna</i>	
Oliy ta'lim rahbar-kadrlarida stressogen vaziyatlarni boshqarishning pedagogik-psixologik o'ziga xos jihatlari	32
<i>Sultonov Mansur G'aniyevich</i>	
Boshlang'ich ta'limda individual yondashuv orqali o'quvchilarning ta'lim natijalarini yaxshilash	37
<i>Latipova Ma'rifat Salohiddin qizi, Bo'tayeva Saodat Xudoyor qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarning raqamli resurs bazasini yaratish kompetensiyasi: tuzilma va mezonlar.....	41
<i>Qo'qonboyeva Durdona Faxriddin qizi</i>	
Biologiyani o'qitishda zamonaviy ta'lim metodlari.....	44
<i>Joldasbayeva Gulchexra Maksetbayevna</i>	
Organik fotoelementlarning moslashuvchanligini oshirish.....	49
<i>Jalolova Pokiza Muzaffarovna</i>	
Dzyudo sport turida texnik tayyorgarlikni takomillashtirishda maxsus mashqlardan foydalanish samaradorligi.....	54
<i>Ko'palov Sanjar Ulug'bekovich</i>	
Interactive Methods for Developing Sociolinguistic Competence in Higher Education	59
<i>Baxramova Diyora Sanjar qizi</i>	
Texnika yo'nalishi talabalarini ishlab chiqarish muhitiga tayyorlashda CDIO va sanoat korxonalari hamkorligining pedagogik imkoniyatlari	66
<i>Gaffarov Xasan Ravshanovich</i>	
Onkologik bemorlarga tashxisni bildirish madaniyati va uning psixologik oqibatlari (O'zbekiston misolida)...	70
<i>Jonpo'lotova Manzura Jahonovna</i>	
Malaka oshirish jarayonida rahbar-kadrlarning SOFT-kompetensiyalarini rivojlantirish samaradorligi.....	75
<i>Axrorova Umida Xamidullayevna</i>	
Refleksiv ta'lim muhitida o'z-o'zini baholash ko'nikmalarini rivojlantirishning didaktik parametrlari tizimi	81
<i>Sadikova Shaxnoza Ulug'bek qizi</i>	



BIOLOGIYANI O'QITISHDA ZAMONAVIY TA'LIM METODLARI

Joldasbayeva Gulchexra Maksetbayevna

27-sonli maktab biologiya fani o'qituvchisi

Qoraqalpog'iston Respublikasi, Nukus shahri, P. Seytov ko'chasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada biologiya o'qitish metodikasi haqida, oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalarida biologik ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari va masalalari, biologiya o'qitish metodikasida qo'llaniladigan zamonaviy metod turlari va ulardan foydalanish, biologiya fani o'qitish metodikasi hamda o'quv jarayonida olib boriladigan prinsiplari haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: biologiya o'qitish metodikasi, prinsiplar, o'quv materiali, o'quv jarayoni, o'qitish shakllari, innovatsiya, ko'nikma, malaka, o'qitishning mantiqiy metodlari, pedagogik texnologiya, interfaol usul, mustaqil fikrlash, ijod qilish.

Abstract: This article provides information on biology teaching methodology, ways and issues of increasing the effectiveness of biological education in higher and secondary specialized, vocational educational institutions, types of modern methods used in biology teaching methodology and their application, biology teaching methodology, and the principles of the educational process.

Key words: Biology teaching methodology, principles, educational material, educational process, forms of teaching, innovation, skills, competencies, logical teaching methods, pedagogical technology, interactive method, independent thinking, creativity.

Аннотация: В данной статье представлена информация о методике преподавания биологии, путях и вопросах повышения эффективности биологического образования в высших и средних специальных, профессиональных образовательных учреждениях, видах современных методов, применяемых в методике преподавания биологии, и их использовании, методике преподавания биологии и принципах, применяемых в учебном процессе.

Ключевые слова: Методика преподавания биологии, принципы, учебный материал, учебный процесс, формы обучения, инновации, навыки, квалификация, логические методы обучения, педагогические технологии, интерактивный метод, самостоятельное мышление, творчество.

KIRISH

Bugungi kunda ta'lim tizimini takomillashtirish hamda fuqarolarning bilim olish huquqlarini ta'minlashda bir qator ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Jahondagi rivojlangan davlatlar tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, ularda jamiyat hayotini o'zgartirishga qaratilgan islohotlar avvalo ta'lim tizimidan, bog'cha, maktab, tarbiya masalasidan boshlanganini ko'ramiz. Chunki maktabni o'zgartirmasdan turib, odamni, jamiyatni o'zgartirib bo'lmaydi.

Ta'lim va tarbiyaning asosi, poydevori bu - maktab. Maktabni maktab qiladigan kuch esa o'qituvchilardir. Keyingi yillarda ana shu muammolarni samarali hal etish, kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha mamlakatimizda ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Prezidentimiz tomonidan xalq ta'limi tizimiga oid 6 ta farmon va qaror, Vazirlar Mahkamasining 20 ta qarori qabul qilinib, bu sohadagi islohotlarning huquqiy-me'yoriy asoslari mustahkamlandi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Odamlar, mavjud bo'lgan minglab hayvonlar turlari, o'simlik va bakteriyalarning har xil turlari kabi tirik mavjudotlar bilan bog'liq barcha narsalarni biologiya o'rganadi. (Abdullayeva M.M., Fuzailova G.S., Sodiqova K.A., Qo'ziyev Sh.N. 2023-yil).



Biologiya fan sifatida inson o'z hayoti va uni o'rab turgan barcha narsalar haqida ko'p narsalarni tushuntirishga muvaffaq bo'ldi, sog'liq va evolyutsiya masalalarida, barchaga ma'lum bo'lgan turlarni tushunishga yordam bera oldi (Sulliyeva S.X., Zokirov Q.G'. 2020-yil).

Biologiya dunyosidagi eng muhim jihatlardan biri shundaki, bu bilan insoniyat hayoti juda yaxshi sog'liqni saqlash standartlariga erishganligi sababli, tibbiyot sohasida rivojlanishga erishildi (Tolipova J.O., G'ofurov A.T. 2004-yil).

Eng kichik infeksiya odamni o'ldirish bilan yakunlandi, chunki uning ta'siriga qarshi kurashishning imkoni yo'q edi (Bekchanov X.O', Mustafaqulova D.I. 2025-yil).

Shu kabi muammolarga biologiya tibbiyot sohasi bilan birgalikda yechim topdi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Bugungi kunda oliy o'quv yurtlarida biologiya fanlarini o'qitishda yangi zamonaviy texnologiyalaridan foydalanishning samarali usullari, turlari, muammolarida hamda yangi zamonaviy texnologiyalari, vazifalarni, ta'limiy vazifasi, ko'rgazmalilik vazifalari, nazorat vazifalarni, rivojlantiruvchi vazifasi, tarbiyaviylik vazifasi, o'quvchilar ilmiy dunyoqarashini rivojlantiruvchi vazifasi, yangi zamonaviy innovatsion axborot texnologiyalarini qo'llash mahsulotlari hamda yangi zamonaviy texnologiyalarning maqsadlari haqida maqolada fikr yuritiladi. Biologiyani o'qitish texnologiyalariga didaktik o'yin texnologiyasi, muammoli ta'lim texnologiyasi, hamkorlikda o'qitish texnologiyasi, loyihalash texnologiyalari va an'anaviy texnologiyalar kiradi.

1. **Ko'rgazmalilik vazifasi** - animatsiyalar o'quvchilar tomonidan biologiyaviy jarayonlarni harakat va dinamik tasvirlash imkoni mavjud.
2. **Nazorat vazifasi** - o'quvchining qay darajada o'zlashtirgani, baholash tizimi haqqoniy bo'lishiga zamin yaratadi.
3. **Rivojlantiruvchi vazifasi** - vazifalar qiyinlik darajasidagi tartibda qo'yilib, o'quvchining bilmaganlarini izlab o'rganishiga, o'tilgan mavzularni mustahkamlashga zamin yaratadi.
4. **Tarbiyaviy vazifasi** - aqliy va o'quv ko'nikmalarini o'zlashtiradi.

Biologiyani o'qitishda quyidagi axborot texnologiyalari mahsulotlaridan foydalanish mumkin.

O'qituvchining kasbiy standartini amalga oshirish sharoitida metodika kursi ilgari odatiy bo'lmagan funksiyalarni bajarishi kerak: talabalarning bilim va ko'nikmalarini tuzatish va integratsiyalash, shu jumladan, asosiy o'quv dasturining turli bloklari fanlarini o'rganishda olingan biologiya bo'yicha; ko'p bosqichli oliy pedagogik ta'lim tizimida talabani individual ta'lim trayektoriyasini tuzishda yordam berish. Uslubiy fanlar bakalavrlar, magistrlar va aspirantlarning individual kasbiy va shaxsiy o'zini o'zi belgilashi, ijodkorligini rivojlantirish uchun maxsus ta'lim maydoni va muhiti va talaba shaxsining o'zi tanlov va qarorlar qabul qilish erkinligiga qaratilgan mutlaq qadriyat sifatida qaraladi. Universitetda ta'limni axborotlashtirish sharoitida biologiya o'qitish metodikasi mazmunini o'quv jarayoniga tatbiq etish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ko'pchilik olimlarning tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, eksperiment yoki slayd namoyishi bilan boshlangan darslardagi akademik muvaffaqiyat ma'ruza usuli bilan boshlangan darsga qaraganda yuqoriroqdir. Tabiatshunoslikni o'qitishda dars boshida o'quvchilarning laboratoriya tajribasidan yoki slayd ko'rsatishdan foydalanish o'quvchilarning e'tiborini tortadi va rag'batlantiradi.

Biroq faqat og'zaki ma'ruzadan foydalanish talabalarni zeriktiradi va unga e'tiborini yo'qotadi.

Muammoli ta'lim - o'quvchilarning tayyor bilimlarni passiv qabul qilishiga emas, balki real yoki o'quv muammolarini mustaqil ravishda tahlil qilish, muammoning sabablarini aniqlash, gipotezalar ilgari surish, dalillarni izlash va ilmiy xulosaga kelishiga asoslangan innovatsion pedagogik metoddir. Ushbu metod konstruktivistik ta'lim nazariyasiga yaqin bo'lib, unda bilim o'quvchi tomonidan faol bilish faoliyati jarayonida shakllantiriladi.

Biologiya fanida muammoli ta'limdan foydalanish ayniqsa samaralidir, chunki biologik jarayonlarning aksariyati sabab-oqibat munosabatlarini aniqlash, tajriba o'tkazish, kuzatish va dalillarni tahlil qilishni talab qiladi. Masalan, "Nima sababdan o'simlik barglari qorong'i sharoitda sarg'ayadi?", "Nima uchun antibiotiklarni noto'g'ri qo'llash bakteriyalarning chidamliligini oshiradi?" yoki "Ekotizimda bitta tur sonining keskin kamayishi qanday oqibatlarga olib keladi?" kabi savollar o'quvchilarni mustaqil ilmiy izlanishga yo'naltiradi.

Mazkur metodda o'qituvchi asosiy bilim manbai sifatida emas, balki ta'lim jarayonini tashkil etuvchi, yo'naltiruvchi va maslahat beruvchi fasilitator sifatida faoliyat yuritadi. O'quvchi esa muammoni hal qilish jarayonining markazida bo'ladi.



Metodning asosiy komponentlari quyidagilardan iborat:

- real yoki o'quv muammosini shakllantirish;
- muammoni tushunish va uning shartlarini tahlil qilish;
- mavjud bilimlarni aniqlash;
- yetishmayotgan bilim va ma'lumotlarni belgilash;
- gipotezalarni ilgari surish;
- axborot izlash va ilmiy manbalar bilan ishlash;
- olingan ma'lumotlarni tahlil qilish;
- muammoning yechimini ishlab chiqish;
- natijalarni asoslash va taqdim etish;
- yakuniy refleksiya va baholash.

Biologiya darsida qo'llash tartibi

Masalan, "Antibiotiklarga bakteriyalarning chidamliligi" mavzusini olaylik.

1-bosqich – Muammoli vaziyat yaratish.

O'qituvchi o'quvchilarga quyidagi vaziyatni taqdim etadi: bir xil antibiotik ilgari ma'lum bir bakterial infeksiyaga qarshi samarali bo'lgan, biroq keyinchalik uning ta'siri kamaygan. O'quvchilardan buning sababini aniqlash so'raladi.

2-bosqich – Muammoni aniqlash.

O'quvchilar "Bakteriyalar qanday qilib antibiotikka chidamli bo'lib qoladi?" degan asosiy muammoni shakllantiradilar.

3-bosqich – Gipotezalar ilgari surish.

Guruhlar o'z taxminlarini ishlab chiqadi. Masalan, mutatsiyalar, tabiiy tanlanish, antibiotiklardan noto'g'ri foydalanish kabi omillar muhokama qilinadi.

4-bosqich – Mustaqil izlanish.

O'quvchilar darslik, ilmiy-ommabop materiallar, diagrammalar va boshqa ishonchli manbalar asosida ma'lumot to'playdi.

5-bosqich – Tahlil va muhokama.

Guruhlar olingan ma'lumotlarni solishtiradi, o'z gipotezalarini tasdiqlovchi yoki rad etuvchi dalillarni aniqlaydi.

6-bosqich – Yechimni taqdim etish.

Har bir guruh o'z xulosasini taqdim etadi. O'qituvchi ilmiy jihatdan to'g'ri xulosalarni umumlashtiradi.

7-bosqich – Refleksiya.

O'quvchilar "Men nimani bildim?", "Qaysi dalil muammoni tushunishimga yordam berdi?", "Yana qanday savollar paydo bo'ldi?" kabi savollar asosida o'z faoliyatini baholaydi.

Metodning samaradorligi

Muammoli ta'lim biologiya fanida tanqidiy va mantiqiy fikrlash, ilmiy izlanish, muammoni hal qilish, dalillarga asoslangan xulosa chiqarish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. An'anaviy darsda o'quvchi ko'pincha biologik faktlarni eslab qolishga yo'naltirilsa, muammoli ta'limda u ushbu faktlarni qo'llash, tahlil qilish va yangi vaziyatga ko'chirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Bundan tashqari, metod o'quvchilarning fan bilan bog'liq motivatsiyasini kuchaytiradi. Chunki o'quvchi bilimni shunchaki "imtihon uchun" emas, balki muayyan muammoni hal qilish uchun o'zlashtiradi. Natijada biologik bilimlarning amaliy ahamiyati yaxshiroq anglanadi.



Flipped Classroom, ya'ni "teskari sinf" metodi an'anaviy darsning tuzilishini o'zgartiradigan zamonaviy pedagogik yondashuvdir. An'anaviy ta'limda o'qituvchi yangi mavzuni auditoriyada tushuntiradi, uyda esa o'quvchi topshiriqlarni bajaradi. Teskari sinf modelida esa yangi mavzu bilan tanishishning dastlabki bosqichi darsdan oldin, amaliy mashg'ulot, muhokama, masala va tajribalar esa dars vaqtida amalga oshiriladi.

Bu metod raqamli ta'lim vositalari bilan bevosita bog'liq. O'qituvchi mavzuga oid qisqa videodars, elektron taqdimot, animatsiya, interaktiv material yoki o'quv qo'llanmasini oldindan taqdim etadi. O'quvchilar darsga kelishdan avval ushbu material bilan mustaqil tanishib chiqadi.

Biologiya fanida ushbu metoddan foydalanish ayniqsa qulay, chunki biologik jarayonlarni video, animatsiya, 3D modellar va virtual tajribalar yordamida vizual ko'rsatish mumkin.

Teskari sinf metodining asosiy tamoyili

Metodning mohiyatini quyidagi formula orqali ifodalash mumkin:

Darsdan oldin – bilim bilan tanishish → darsda – bilimni qo'llash → darsdan keyin – bilimni mustahkamlash va refleksiya.

Shunday qilib, auditoriya vaqti oddiy ma'ruza uchun emas, balki faol o'quv faoliyati uchun sarflanadi.

Biologiya darsida qo'llash tartibi

Masalan, "Fotosintez jarayoni" mavzusini olaylik.

1-bosqich – Darsdan oldingi tayyorgarlik.

O'qituvchi fotosintez jarayoni, uning bosqichlari va biologik ahamiyati haqida qisqa videomaterial yoki elektron taqdimot tayyorlaydi. O'quvchilar darsdan oldin ushbu material bilan mustaqil tanishadi.

2-bosqich – Dastlabki nazorat.

Dars boshida o'quvchilarning mavzuni qay darajada o'zlashtirgani qisqa test, savol-javob yoki interaktiv topshiriq orqali aniqlanadi.

3-bosqich – Faol muhokama.

O'qituvchi o'quvchilarga "Fotosintez tezligiga yorug'lik intensivligi qanday ta'sir qiladi?", "Nima uchun fotosintez Yerda hayotning davom etishi uchun muhim?" kabi savollar beradi.

4-bosqich – Guruhli va amaliy faoliyat.

O'quvchilar guruhlariga bo'linib, fotosintezga ta'sir qiluvchi omillarni tahlil qiladi, grafiklarni izohlaydi yoki tajriba natijalarini muhokama qiladi.

5-bosqich – Muammoli topshiriqlar.

Masalan, o'quvchilarga "O'simlik uzoq vaqt davomida yorug'lik yetishmaydigan sharoitda saqlansa, unda qanday fiziologik o'zgarishlar yuz beradi?" kabi topshiriq beriladi.

6-bosqich – Natijalarni umumlashtirish.

Guruhlar o'z xulosalarini taqdim etadi. O'qituvchi noto'g'ri tushunchalarni tuzatadi va mavzuning asosiy ilmiy jihatlarini umumlashtiradi.

7-bosqich – Darsdan keyingi faoliyat.

O'quvchilarga mavzuni mustahkamlash uchun test, kichik loyiha, grafik tahlili yoki kuzatish topshirig'i berilishi mumkin.

Teskari sinf metodining samarasi

Mazkur metodning muhim afzalligi - o'quv vaqtining samarali taqsimlanishi. O'qituvchi dars vaqtining katta qismini yangi ma'lumotni monolog shaklida yetkazishga emas, balki o'quvchilarning bilimlarini amaliy qo'llashiga sarflaydi.

Teskari sinfnig yana bir muhim jihati shundaki, o'quvchi videodars yoki elektron materialni o'ziga qulay tezlikda ko'rib chiqishi mumkin. Tushunmagan qismini qayta ko'rish, kerakli joyida to'xtatish va qo'shimcha ma'lumot izlash imkoniyati mavjud. Bu individual ta'lim ehtiyojlarini hisobga olish imkoniyatini kengaytiradi (1-jadval).



1-jadval: Ikki metodning biologiya ta'limidagi qiyosiy ahamiyati

Mezoni	Muammoli ta'lim	Teskari sinf
Asosiy maqsad	Muammoni ilmiy asosda hal qilish	Dars vaqtini faol o'rganishga yo'naltirish
O'quvchi roli	Tadqiqotchi va muammoni hal qiluvchi	Mustaqil o'rganuvchi va faol ishtirokchi
O'qituvchi roli	Fasilitator, yo'naltiruvchi	Tashkilotchi, maslahatchi
Asosiy faoliyat	Muammoni tahlil qilish va yechim izlash	Oldindan o'rganilgan bilimni amalda qo'llash
Rivojlantiradigan ko'nikmalar	Tanqidiy fikrlash, tadqiqotchilik, muammo yechish	Mustaqil ta'lim, raqamli savodxonlik, hamkorlik
Biologiyadagi qo'llanishi	Ekologik, genetik, fiziologik va tibbiy muammolar	Biologik jarayonlar, anatomiya, genetika, ekologiya
Ta'lim samarasi	Chuqur fikrlash va ilmiy xulosa chiqarish	Faol ishtirok va o'quv vaqti

Laboratoriya ma'ruza zallariga qaraganda (ayniqsa, katta sinflar uchun) qulayroq o'quv muhitidir, chunki u talabalarga real hayotiy vaziyatlarni taqdim etadi va muammoni hal qilish ko'nikmalarini amalga oshirish imkoniyatini beradi. Shu bilan birga, talabalar amaliy tajriba, faol fikrlash va bilimlarni aks ettirish uchun ko'proq vaqt va imkoniyatlarga ega. Bundan tashqari, jamoaviy ish muhiti talabalarni o'zlarining shaxslararo ko'nikmalarini mashq qilishga, shuningdek, jamoaviy ruh va yetakchilikni tarbiyalashga undaydi. Nihoyat, og'zaki taqdimotlar o'quvchilarga aqliy javob va taqdimot mahoratini oshirish imkoniyatini beradi.

Ushbu tadqiqot natijalariga ko'ra, eksperiment va slayd namoyishi bilan boshlangan darsda eslab qolish (esdalik) darajasi ma'ruza bilan boshlanganidan yuqori bo'lgan. Chunki odamlar o'qiganlarining 10%, eshitganlarining 20%, ko'rganlarining 30% va amaliy tajribaning 90%ini eslab qolishadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, o'quvchilar ongi va qalbiga milliy istiqlol g'oyasini singdirishda biologiya darslari, ekskursiyalar, darsdan va sinfdan tashqari mashg'ulotlarni samarali tashkil etish, mavzu mazmuniga bog'liq holda ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, mustaqillik prinsiplari va Ona-Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalashga katta e'tibor berish lozim. Barcha bilimlarni o'zlashtirish uchun mashq eng yaxshi usul hisoblanadi. Mashq nafaqat biologiya ta'limida, balki barcha soha bilimlarini o'zlashtirishda ham ijobiy natija beradi. Darsni samarali tashkil etish, unda pedagog faoliyati va zamonaviy pedagogik texnologiyalarning o'rni beqiyosdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 23-avgust kuni xalq ta'limi tizimini rivojlantirish, pedagoglarning malakasi va jamiyatdagi nufuzini oshirish, yosh avlod ma'naviyatini yuksaltirish masalalariga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishidagi nutqi. "Xalq so'zi" gazetasi, 2019-yil 24-avgust.
2. Abdullayeva M.M., Fuzailova G.S., Sodiqova K.A., Qo'ziyev Sh.N. Biologiya o'qitish metodikasi. - Toshkent: Fidokor yosh avlod, 2023. - 168 b. Mazkur o'quv qo'llanmada botanika, zoologiya, anatomiya va umumiy biologiya darslarini tashkil etish hamda zamonaviy biologiya darsining mazmuni yoritilgan.
3. Sulliyeva S.X., Zokirov Q.G'. Biologiya o'qitish metodikasi. - Toshkent: Complex Print, 2020. - 223 b. Ushbu qo'llanmada biologiya fanini o'qitish metodlari, darsni tashkil etish, zamonaviy va ilg'or pedagogik texnologiyalar hamda xorijiy tajribalar bayon etilgan.
4. Tolipova J.O., G'ofurov A.T. Biologiya o'qitish metodikasi. - Toshkent: Bilim, 2004. - 200 b. Ushbu asar biologiyani o'qitishning umumiy metodik asoslari, darslarni tashkil etish va o'quvchilarning bilish faoliyatini rivojlantirish masalalariga bag'ishlangan.
5. Bekchanov X.O', Mustafaqulova D.I. Biologiya o'qitish metodikasi. - Toshkent: Bookmany Print, 2025. - 180 b. O'quv qo'llanmada biologiyani o'qitish shakllari, metodlari, darsni tashkil etish, zamonaviy va ilg'or pedagogik texnologiyalar hamda xorijiy tajribadan foydalanish masalalari yoritilgan. AAKBT URSPI

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №9(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.